



MAQSADIMIZ —

KOMPANIYA OBRO'SINI OSHIRISH

Hafiza Salyahova,

jurnalist

— *Vladimir Vladimirovich, o'tgan 2017-yil filial uchun qanchalar muvaffaqiyatli bo'ldi? Texnikaviy rejalar ko'n-gildagidek bajarildimi?*

— 2013–2020 yillarga mo'ljallangan telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida salmoqli ishlarni ado etyapmiz desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'tgan yili jami 124,259 km masofada optik tolali kabel-lar yotqizish ishlari yakunlandi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov raisligida o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriq ijrosi bo'yicha videokuzatuv kameralari o'rnatildi. Buning uchun Qo'qon shahrida 17,3 km optik tolali kabel yotqizildi. Shuningdek, Farg'ona, Marg'ilon shaharlari, So'x tumanidagi tashkilotlarga, jami 14,95 km, «O'zMobayl» filiali GSM tarmog'i baza stansiyalariga 39 km OTAL tashkil etildi. 3440 sig'imli port sig'imli qurilmalar o'rnatish rejasini ham o'z vaqtida ado etdik: Farg'ona shahar TB 225 ATS'ga 64 port sig'imli, Qo'qon shahar TB 551 ATS hamda To'laboy ATS'ga, Quvasoy shahar Yoshlik ATS'ga 128 port sig'imli, qator tumanlardagi TB'larimiz ATSlariga ham turli sig'imdagi DSLAM qurilmalari o'rnatildi. Bundan tashqari, qariyb hamma tumanlar TB'lari ATSlariga MSAN qurilmalarini o'z vaqtida, sifatli o'rnatishga muvaffaq bo'ldik. Keng polosali xizmatlar haqida gap ketganda, qator qishloqlar aholisining talablarini o'rganib chiqib, 2017–2018 yilda tumanlardagi Mindonobod, Mirfozil, Pakana, Qulbobo kabi jami 13 ta qishloqlar hududiga ham mini MSAN qurilmalarini o'rnatishga erishganimizni ham aytib o'tish lozim. Shu yilning olti oyida 872 port sig'imli MSAN va DSLAM qurilmalari o'rnatildi. Bularning hammasi texnikaviy sohadagi ilgariylashga «labbay» deb javob berishga intilayotganimiz sharofatidir. Viloyat hududida magistral telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish ishlari natijasida magistral tarmoqlarning o'tkazuvchanligi 1 Gbit/s dan 10 Gbit/s gacha oshirildi.

— *Demak, keng polosali xizmatlar-internetdan foydalanuvchilar soni osib bormoqda. Shundaymi?*

— Albatta, unumli mehnat o'z natijasini bermay qolmaydi. Bu yilning 31-iyul holatiga Internetdan foydalanuvchilar soni 21235 taga yetdi. Shundan jismoniy shaxslar 17692 tani, yuridik shaxslar 3543 tani tashkil etmoqda. Ular yanada ko'payishi kutilmoqda. Shu yilning olti oyida shahar va tumanlarda 75,9 km, O'zmobayl baza stansiyalariga esa 11,3 km optik tolali kabellar yotqizish ishlari yakunlandi.

— *FTTb texnologiyasi — optik tolali liniyalarni ko'p qavatli uylargacha olib borish ishlariga ham qisqacha to'xtalsangiz.*

— Darhaqiqat, bu texnologiya bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan yil davomida shahar va tumanlarda 63ta 1512 portga teng Switch qurilmalari o'rnatilganligi aholining internet, IPTVga ulanish imkoniyatlarini ta'minlab berdi. Joriy yilda bu xayrli ishni davom ettirib, 36ta 864 portga teng Switch o'rnatib, 36ta ko'p qavatli uylarga, korxona va tashkilotlarga mazkur xizmatlardan bahramand bo'lish imkoniyatini yaratdik. Mazkur loyiha asosidagi ishlar davom ettirilmogda.

— *Farg'ona tumani Mindonobod massiviga Iskratel kompaniyasi tomonidan hamda Ilg'or massiviga Nokia kompaniyasi tomonidan aktiv qurilmalar o'rnatish bo'yicha shartnomalar imzolanganidan xabardormiz. Ana shu GPON qurilmalari o'rnatilishining nafi qanchalar muhim. Shu baqda ham qisqacha tushuncha bersangiz.*

— GPON — telekommunikatsiya texnologiyasi sohasidagi eng yangi qurilmalardan biri. Optik tola xonadongacha kirib boradi. Afzalliklarini bemalol tasavvur etavering. Bir muddat o'tgach, xizmatlar soni ham, sifati ham, tezligi ham yuqori darajaga yetkaziladi. Mindonobod massiviga ham, Ilg'or-2 massiviga ham aktiv qurilmalar ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetkazib berilib, montaj qilindi hamda zarur texnik ishlar amalga oshirildi. Har ikkala massivga ham optik tola yotqizish uchun loyiha smeta hujjatlari ishlab chiqilgan. Xullas, Farg'ona tumani aholisi intellektual xizmatlarimizdan behad mamnun bo'ladilar, degan umiddamiz. Zero, butun faoliyatimiz «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan tamoyil talablariga asoslanganligini mamnuniyat bilan ta'kidlasam bo'ladi.

2018-yil davomida 94 km optik tolali aloqa liniyalarini qurish, viloyatda keng polosali tarmoqlarni 4352 portga, FTTb texnologiyasi tarmoqlarini 936 portga kengaytirish niyatidamiz. Shu yilgi rejamizda «O'zmobayl» filiali CDMA va GSM standartidagi baza stansiyalariga 42 kilometrlik OTAL tashkil qilib berishni ham zimma-mizga olganmiz. Yil oxirigacha rejalarimizni yorug' yuz bilan amalga oshirish uchun kuch-g'ayratni bo'shashtirmayapmiz.

— *Bu vazifalarni amalga oshirishda kuch-g'ayratini ayamaydigan, salohiyatli, malakali mutaxassis-xodimlarlar qatorida kimlarni tilga olardingiz?*

— Ular ko'pchilik. Nozimchi chaqirganda darhol joyiga yetib boradigan, «Yarim tunda-ya?», «Bugun bayram-ku» yoki «Dam olish kuni-ku» demay, qay mahal bo'lsa ham, xizmatga shay turadiganlar baraka topishsin, jamoa yukini ko'tarib, kam bo'lishmayapti. Sal kam o'ttiz yildan buyon fidokorona mehnat qilayotgan, ko'plab shogirdlar boshini silayotgan «Mohir Aloqachi» unvoni sohibi Enver Adjigeldiyev, telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va ekspluatatsiya bo'limi boshlig'i Mirjahon Eshimov, Rasuljon Usmonov, Jahongir Tursunov, Ravshanbek Parpiyev, Ahliddin Dadajonov, Botirjon Urayimovlar, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarini boshqarish bo'limi boshlig'i Akmaljon Millajonov, kadrlar bo'limi boshlig'i Gulnozaxon Jo'rayeva, Oltiariq, Beshariq, Buvayda telekommunikatsiya bog'lamlari boshliqlari Bunyod Roziqov, Bahodir Mamatqulov, Qurbonali Mirzaqosimovlar va boshqalar jamoamizning faxri hisoblanadilar. Ular ishlashdan, izlanishdan tolmaydilar, ishni tez va a'lo bajarish bo'yicha takliflari, fikr-mulohazalari bilan ham jamoada o'z o'rinlariga egadirlar. Vatanim, ishxonam, farzandlarim uchun deya xizmat qilayotganlar muhandislarimiz jismoniy mehnat o'rnini robototexnikalari egallayotganini teran anglab, o'z usullarida tinmay ishlaydilar. Zamondan ortda qolmay, ibrat namunalarini ko'rsatishmoqda. Chindan ham davr bilan hamnafaslikda avvalo o'zimiz namuna bo'lishimiz zarur. Raqamli ko'nikmalarni ommaviy ravishda shakllantirish — asosiy vazifalarimizdandir.

— **Qanday muammolar dolzarb bo'lib turibdi?**

— Ilm, tajriba oshib borgani sari ba'zi muammolar barham topsada, aslida, boshqa muammolar chiqaveradi — bu, faylasuflar ta'kidlaganlaridek, hayot qonuni. Texnika, texnologiyalar mukammallashib borgani sari, ularni yangilash muammosi ko'ndalang bo'lib turaveradi.

Binobarin, 2018-yil 9-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda Internet tarmog'iga ulanish qamrovini kengaytirish va tezligini oshirish, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya sohasida yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan aloqa o'rnatish, «Elektron Hukumat» tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborot berilib, sohada kelgusida bajarilishi zarur bo'lgan ishlar belgilab berildi. Magistrat tarmoqlar yangilanib, tarmoq o'tkazuvchanligi oshirib borilayotganligi bilan, «Oxirgi milya» ya'ni, telekommunikatsiya qurilmasidan abonentgacha bo'lgan aloqa kabellari, tarqatish qutilari ma'nan eskirganligi sababli Internet tarmog'iga ulanish qamrovini kengaytirish va tezligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar Prezidentimiz tomonidan tanqid qilindi. Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek, aksar tarqatish kabellari va tarqatish qutilari o'tgan asrda foydalanishga topshirilgan. Bu aloqa kabellari yillar o'tishi davomida eskirib, sifatli xizmat ko'rsatishga yaroqsiz holga kelgan. Bu kamchilikni bosqichma-bosqich bartaraf etish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida «Oxirgi milya» tamoyiliga asosan liniya-kabel xo'jaligini yangilab borish asosiy maqsad qilib olindi.

Na iloj, ish bor joyda qiyinchilik bor va ayni paytda elimiz intellektual salohiyatini oshirishga munosib hissa qo'shishdek yoqimli tashvishlar ham bor. Bu jarayonlarning oxiri benihoya zavqli va huzurbaxshdir.

— **Mazmunli subbatingiz uchun rahmat. «O'zbektelekom» AKni respublikamizdagi birinchi raqamli Milliy operatorga aylantirish yo'lidagi sa'y-barakatlaringizda omad tilaymiz.**



Suhbatdoshimiz haqida

Vladimir Vladimirovich Yeykov — 1977-yil 29-iyul kuni Farg'ona shahrida tug'ilgan. 2004-yilda Farg'ona politexnika instituti elektr-energetika fakultetini tamomlagan. Mehnat faoliyatini 1994-yildan 26 ATS kross o'quvchi-elektromontyorligidan boshlagan. Shundan so'ng turli jabhalarda elektromexanik, muhandis, yetakchi muhandis, bosh mutaxassis, ishlab chiqarish laboratoriya boshlig'i, texnik direktor vazifalarida xizmat qilgan. 2016-yildan hozirgacha «O'zbektelekom» AK Farg'ona filiali direktori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. O'zbek, ingliz tillarini biladi. O'z vaqtida rahbarlar uni «Azamat yigitlar sardori» deb atashardi. O'zbekona tantilik, odamiylik, kamtarlik fazilatlarini tufayli jamoa mehri-hurmatini qozongan. Sidiqdir mehnatlari uchun 2013-yilda O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Faxriy yorlig'i bilan taqdirlangan. «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi», «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi» ko'krak nishonlari bilan mukofotlangan. Oilali. Rafiqasi Natalya Vladimirovna Yeykova «Al Barot» MChJ sug'urta korxonasi xodimi.

Avvalo shuni aytish kerakki, «O'zbektelekom» AK Farg'ona filialiga qarashli barcha 19 telekommunikatsiya bog'lamlarida SI-3000 (Sloveniya), C&C08 (Xitoy), DTS-1100 (Janubiy Koreya), «Koinot EL-SGM» (O'zbekiston) ATSlar mavjud bo'lib, ularning jami soni 113 tani tashkil etadi. Ushbu ATS larning barchasi elektron ATS bo'lib, ulardan 50 tasi MSAN rusumidagi ATS lardir. Ayni kunda umumiy foydalanish sig'imi 77967 bo'lgan 157478 raqam sig'imli 102 ta shahar, 3424 ta sig'imli 11 ta qishloq ATS larni ishlab turibdi. Mazkur telekommunikatsiya bog'lamlari va ATS larning aholiga sifatli xizmat ko'rsatishida filial rahbari Yeykovning ham samarali mehnati yotibdi.